

UDC: 343.8(045)(575.1)

XORIY MAMLAKATLAR JINOYAT PROTSESSUAL QONUNCHILIGIDA EHTIYOT CHORASI SIFATIDA UY QAMOG'INING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Abdullayev Diyor Ibodillayevich,
TDYU kadrlar bo'limi bosh mutaxassisi,
TDYU mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-9557-6309
e-mail: dior.5505@mail.ru

Annotatsiya. Mamlakatimizda sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Aksariyat huquqshunos olimlar tomonidan uy qamog'iga zamonaviy jinoiy siyosat va jinoiy odil sudlovni insonparvarlashtirish vositasi sifatida qaraladi. Milliy qonunchiligimizga ko'ra, uy qamog'i boshqa ehtiyot choralari nisbatan yangi huquqiy institutdir. Shu bois huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammoli holatlarga oqilona yechim topish uchun ushbu ehtiyot chorasini hayotga tatbiq etish bo'yicha katta tajribaga ega xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi va mutaxassis olimlar fikrlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish, ijobiy tajribadan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur maqolada muallif tomonidan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar, AQSh va ayrim Yevropa davlatlari jinoyat-protsessual qonunchilik normalari asosida uy qamog'i ehtiyot chorasining huquqiy tartibga solinishi, xususan, ushbu ehtiyot chorasini qo'llash asoslari va shartlari, shaxsga nisbatan o'rnatiladigan cheklovlar turlari qiyosiy tahlil qilish orqali tadqiq etilgan. Shuningdek, uy qamog'ini qo'llash tartibi bilan bog'liq masalalarning ilmiy-huquqiy jihatlarini xorijlik mutaxassislar va huquqshunos olimlar qarashlari orqali ifodalangan va mohiyati ochib berilgan. Maqolaning xulosa qismida uy qamog'i ehtiyot chorasiga oid milliy qonunchilik va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: uy qamog'i, jinoyat protsessi, ehtiyot choralari, taqiqlar (cheklovlar).

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДОМАШНЕГО АРЕСТА КАК МЕРЫ ПРЕСЕЧЕНИЯ В ЗАРУБЕЖНОМ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ ЗАКОНЕ

Абдуллаев Диёр Ибодиллаевич,
самостоятельный соискатель,
главный специалист отдела кадров
Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В ходе реализации судебно-правовых реформ в нашей стране одной из приоритетных задач является либерализация и совершенствование уголовно-процессуального законодательства. Большинство ученых-юристов рассматривают домашний арест как инструмент гуманизации современной уголовной политики и уголовного правосудия. Согласно нашему национальному законодательству, домашний арест является новым правовым институтом по сравнению с другими мерами пресечения. В связи с этим для поиска рационального решения отдельных проблемных ситуаций, возникающих в правоприменительной практике, представляется целесообразным углубленное научно-

теоретическое изучение уголовно-процессуального законодательства зарубежных стран, имеющих большой опыт внедрения данной меры пресечения, мнений ученых-специалистов и использование данного положительного опыта. В статье автором исследовано правовое регулирование меры пресечения в виде домашнего ареста на основе норм уголовно-процессуального законодательства государств-участников Содружества Независимых Государств, США и некоторых европейских государств, в частности путем сравнительного анализа оснований и условий применения этой меры пресечения, видов ограничений, налагаемых на лицо. Более того, в данной работе выражены и раскрыты научно-правовые аспекты вопросов, связанных с порядком применения домашнего ареста с точки зрения зарубежных специалистов и ученых-юристов, а также в заключительной части статьи представлены выводы и предложения по совершенствованию национального законодательства и практики применения меры пресечения в виде домашнего ареста.

Ключевые слова: домашний арест, уголовный процесс, меры пресечения, запреты (ограничения).

LEGAL REGULATION OF HOUSE ARREST AS A PRECAUTIONARY MEASURE IN FOREIGN CRIMINAL PROCEDURAL LAWS

Abdullayev Diyor Ibodillayevich,
Chief specialist of HR department of TSUL,
Independent researcher of TSUL

Abstract. One of the priorities is the liberalization and improvement of criminal procedural legislation in the process of implementing judicial and legal reforms in our country. House arrest is seen by most legal scholars as a means of humanizing modern criminal politics and criminal justice. According to our national legislation, house arrest is a new legal institution concerning other precautions. Therefore, in order to find a rational solution to some problematic cases arising in the practice of applying the law, it is desirable to use scientific-theoretical in-depth study and positive experience of the views of foreign countries with extensive experience in the implementation of this precautionary measure. In this article, the author examines the legal regulation of the measure of house arrest on the basis of the norms of criminal procedural legislation of the Commonwealth of Independent States, the USA, and some European countries, in particular, the basis and conditions for the application of this measure, the types of restrictions imposed on a person by comparative analysis. Also, the scientific and legal aspects of issues related to the procedure for applying for house arrest are expressed through the views of foreign experts and legal scholars, and the essence is revealed, and in the summary section of the article, conclusions and suggestions on improving the national legislation on the home arrest precaution and the practice of its application are presented.

Keywords: house arrest, criminal procedure, restraints, prohibitions (restrictions).

Kirish

Har qanday mamlakat hayotiga u yoki bu huquqiy institutni tatbiq etish yoki shu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish jarayonida tarixiy omillar, o'z davlatining nazariy va amaliy bazasi, chet el davlatlarining huquqiy normalari va tajribasini chuqur o'rganish hamda tahlil qilish "birovlarining xatolari"ni aniqlash va ularning milliy qonun-

chilikda takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikka ko'mak beradi. Shu bois yaqin va uzoq chet el davlatlarining jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qilsak, ularda belgilangan protsessual institutlar va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan institutlar o'rtasida o'zaro o'xshashliklar borligini aytib o'tish mumkin. Shu sababli uy qamog'i huquqiy reglamentatsiyasi va qo'llash

amaliyoti bo'yicha chet el davlatlari tajribasini o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, induksiya, deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi uslublar qo'llanilgan. Bundan tashqari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Keyingi yillarda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo ba'zi mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi ehtiyot choralari tizimiga uy qamog'i kiritildi. Xususan, 2009-yilda qabul qilingan Tojikiston Jinoyat-protsessual kodeksi [1]ning 110-moddasida, 2013-yilda qabul qilingan Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksining [2] 181-moddasida uy qamog'i tariqasidagi ehtiyot chorasi o'z aksini topdi. Bu haqdagi tavsiya MDH Parlamentlararo Assambleyasi 1996-yil 17-fevralda tasdiqlagan JPK Modelida [3] aks ettirilgan edi. Uning 175-moddasida uy qamog'i qo'llangan shaxsning zimmasiga: uyidan muttasil yoki muayyan vaqtlarda chiqib ketmaslik; telefonda so'zlashmaslik, aloqa vositalaridan foydalanmaslik, xat-yozishmalar yubormaslik; uyda o'rnatilgan maxsus elektron nazorat vositalarining nazdida bo'lish va ularning soz holda ishlashini ta'minlash; nazorat tartibida telefon orqali chaqirganda, javob berish yoxud muayyan vaqtlarda telefonda o'zi to'g'risida xabar berib turish; ayblanuvchi yoki uning uy-joyini kuzatish, uyi yoxud unga ajratilgan xonani qo'riqlab turish; ayblanuvchining jamiyat bilan aloqasini cheklash yoki uning xulq-atvorini kuzatishga qaratilgan boshqa choralari ko'rish kabi majburiyatlar yuklatilishi nazarda tutilgan [4].

Bugungi kunda aksariyat MDH mamlakatlari jinoyat-protsessual qonunchiligidagi uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi yuqorida-

gi norma mazmuniga juda yaqin bo'lsa-da, ularning o'ziga xos farq qiluvchi jihatlari ham mavjud. Xususan, bularni ushbu ehtiyot chorasini qo'llash tartibida, u bilan bog'liq muddatlar va ularni uzaytirishda, uy qamog'ini qo'llashga sanksiya berishga va-kolatdor mansabdor shaxslar bilan bog'liq o'ziga xosliklarda ko'rishimiz mumkin. Birgina Rossiya davlati jinoyat protsessida uy qamog'i ehtiyot chorasi turli davrlarda turlicha talqin qilingan va qo'llanilgan. P.I. Lyublinskiy uy qamog'i 1632-yilda paydo bo'lganini tasdiqlagan. Misol sifatida esa Shein jinoyat ishi bo'yicha knyaz Beloselskiyga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot chorasini keltirgan [5, 6]. Yu.G. Ovchinnikov esa Rossiya davlatining jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini tarixiy jihatdan tahlil qilib, uning alohida xususiyatlarini aniqlagan: "...o'sha paytda agarda ayblanuvchi taniqli odamlardan biri bo'lsa, uning orqasidan nazorat qilish maqsadida ikki nafar nazoratchi qo'yilgan, nazorat ostida bo'lganlar o'zlarining yashash joylaridan chetga chiqmasdan yurishgan" [7]. Bu davrdagi uy qamog'ining xususiyatlaridan biri davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan huquqbuzarlarga nisbatan ularni uy sharoitida chegaralab, uzluksiz nazorat ostida saqlab turilishi aniqlangan.

Rossiyaning 1832-yilgi qonunlar to'plamida uy qamog'i birinchi bor o'z aksini topgan. Mazkur to'plamning XV jild 876-moddasida belgilangan ehtiyot choralari qatorida uy qamog'i ham ifodalangan [8]. Yuqoridagi ehtiyot choralari turini belgilovchi normada sanab o'tilgan ehtiyot choralari o'sha davr ijtimoiy hayotiga asosan, shaxsning qaysi tabaqaga tegishlilikini inobatga olib qo'llanilgan. Ehtiyot chorasi ayblanuvchining unvon darajasi, jinoyatning og'irligi va dalillarning kuchiga qarab qo'llanilgan. Bundan tashqari, ayblanuvchi yashirinishda gumon qilinsa ham ehtiyot chorasi qo'llanilgan [6]. Shu kabi o'tmishga qaramay, bugungi kunga kelib, Rossiya qonunchiligi ham inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda xalqaro huquq

normalariga moslashtirildi. I.L. Petruhin ta'kidlaganidek, insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish Rossiya JPKning asosiy konseptual g'oyasi bo'lib xizmat qilmoqda [9]. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 107-moddasida "uy qamog'i gumonlanuvchi, ayblanuvchining erkin harakatlanishi, muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lishi, xat-xabar olish va jo'natishi, har qanday aloqa vositalaridan foydalanishi va ular yordamida so'zlashuvlar olib borishini cheklashdir" deyilgan. Uy qamog'i gumonlanuvchi, ayblanuvchining yoshi, sog'lig'i, oilaviy holati va boshqa holatlarini inobatga olgan holda, sud qaroriga muvofiq, Rossiya Federatsiyasi JPKning 108-moddasida ko'rsatilgan asos va tartibda qo'llaniladi [6].

Qozog'iston Respublikasida uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasi nafaqat Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida (146-modda) [10], balki 2002-yil 20-sentabrdagi № 949-sonli Prezident Farmoyishi bilan ma'qullangan, protsessual jarayonlarni tezlashtirish va soddalashtirish maqsadida protsessual qonunchilikni takomillash-tirishga qaratilgan Qozog'iston Respublikasi huquqiy siyosati Konsepsiyasi, shu bilan birga, Hukumatning 2002-yil 30-noyabrdagi № 1274-sonli Qarori bilan tasdiqlangan, ushbu Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasining 63-bandini bajarish va qamoqqa olishga alternativ bo'lgan ehtiyot choralarini qo'llash mexanizmini tartibga solish maqsadida qabul qilingan uy qamog'ini ehtiyot chorasi sifatida qo'llash bo'yicha yo'riqnomada ham belgilangan.

Aytib o'tilgan hujjatlarga ko'ra, Qozog'iston Respublikasi jinoyat protsessida uy qamog'i – bu prokuror yoki sudya ruxsati bilan, gumonlanuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llashga asos yetarli bo'lganda, lekin shaxsning to'liq izolyatsiyasi yetarli asoslanmagan yoki maqbul emas deb topilganda, shaxsni tabiiy huquqlarini maksimal darajada amalga oshirish mumkin bo'lgan jamiyatdan ajratil-

gan sharoitda ushlab turishdir. Uy qamog'i ayblanuvchi (gumonlanuvchi) surishtiruv, tergov yoki sud ishlaridan qochishi, ish tergov qilinishi yoki sudda ko'rib chiqilishining obyektivligiga xalaqit berishi yoxud jinoyiy faoliyatni davom ettirishiga yetarli asos bo'lganda, shuningdek, hukm ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bunda chin ko'ngildan pushaymonlik, ijobiy tavsifnoma, sudlanmaganlik, qarilik yoki voyaga yetmaganlik (yoshi), sog'liq holati, oilaviy ahvoli, yosh bolalari borligi, faoliyat turi, moddiy ahvoli, doimiy yashash joyi borligi va boshqa sharoitlar inobatga olinadi. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan, ayrim hollarda uy qamog'i gumon qilinuvchiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Lekin bunda ehtiyot chorasi qo'llanil-gandan so'ng 10 kun ichida ayblov qo'yilishi zarur, yo'qsa bu ehtiyot chorasi o'sha zahoti o'z kuchini yo'qotadi.

Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i belgilangan taqdirda, bu haqda qaror chiqariladi va u jinoyat ishini olib borayotgan organda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini tayinlashni hisobga olish jurnalida ro'yxatdan o'tkaziladi. Qaror nusxasi ayblanuvchi yoki gumonlanuvchiga qaror ustidan shikoyat qilish tartibi tushuntirilgan holda beriladi. Zaruriyat tug'ilganda, jinoyat protsessini olib borayotgan organ tomonidan uy qamog'ida ushlab turish joyi sifatida shifoxona, klinika, pansionat, hovli va boshqa joylar yoki ijara olingan xonalar belgilanishi mumkin. Yashash joyi deganda, ayblanuvchi, gumonlanuvchining vaqtincha yoki doimiy o'zi yoki oilasi bilan yashaydigan xonadon, uy, xona, kayuta, kema (suzish vaqtida) hisoblanadi. Ayblanuvchi yoki gumonlanuvchiga jinoyat bo'yicha ish olib borilayotgan paytda qarindoshlari yoki boshqa shaxslar tomonidan yashash joyi berilishi mumkin, faqat bunda ularning va shu uyda yashaydigan boshqa voyaga yetgan shaxslarning yozma roziligi zarur. Uy qamog'i davrida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining doimiy yashash joyi

bo'lmagan joyda ijara shartnomasi tuzilgan taqdirda, ijaraga beruvchi shaxs ijara maqsadidan xabardor bo'lishi shart, bunda subijaraga yo'l qo'yilmaydi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan, uy qamog'idagi shaxsga nisbatan quyidagi cheklovlar o'rnatilishi mumkin: ma'lum shaxslar bilan muloqot qilish; xat yuborish va olish; har qanday aloqa vositasi yordamida muzokara olib borish; ma'lum vaqt mobaynida yashash joyidan chiqmaslik.

Jinoiy ishni sudgacha ko'rib chiqish vaqtida o'rnatilgan cheklovlar jinoiy ishni olib borayotgan organning prokuror tomonidan ma'qullangan asoslangan qarori asosida quyidagi hollarda qisman yoki to'la ravishda olib tashlanishi mumkin: ish yoki o'qish joyi, poliklinika yoki dorixona, birinchi zaruriyat mollari va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun bozorga chiqish; yaqin qarindoshlarinikiga qisqa muddatga, ularning hayotiga xavf soluvchi og'ir kasallik yoki o'lim munosabati bilan; o'zi va yaqin qarindoshlari sog'ligiga oid yozishmalar; statsionar muloqot nuqtalarida xalqaro suhbat olib borish – agar bu suhbat mazmuni faqat shaxsiy masala yoki yaqinlar sog'ligiga bog'liq bo'lsa.

Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini jinoiy ishni olib borayotgan organning prokuror tomonidan ma'qullangan asoslangan qarori asosida bekor qilinishi (agar unga hojat qolmagan taqdirda) yoki o'zgartirilishi (qattiqroq (qamoq) yoki yengilroq)ga) mumkin. Shu bilan birga, qonun tomonidan prokurorning ehtiyot chorasini qo'llashdagi huquqi cheklanmagan. Demak, Qozog'iston Respublikasida prokuratura organlari ehtiyot chorasini qo'llashda deyarli sudga teng vakolatga ega. Shu o'rinda Yu.G. Ovchinikov, Ye.V. Saltikov, I.L. Trunov va L.K. Trunovalarning fikrini aytib o'tish joizki, unga ko'ra, prokuror "arbitrlik funksiyasi"ga ega bo'lib, u tomonlar fikrlarini eshitgandan so'ng qaror qabul qiladi [11].

Qozog'iston Respublikasida uy qamog'idagi shaxsga qo'yiladigan cheklovlar

va nazorat qilish qoidalari ijrosi yuzasidan nazorat xuddi bizdagi kabi surishtiruv organiga yuklatilgan. Cheklovlar doimiy ravishda (ikki va undan ko'p) buzilgan holda, uni qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasiga almashtirish mumkin. Bunday buzilishlar hujjatlar bilan (nazoratchilar bildirgilari, guvohlar ko'rsatmalari) asoslangan bo'lishi lozim. Gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi ustidan nazorat olib boradigan mansabdor shaxslar uning o'zini tutishi va cheklovlarga amal qilishini tekshirish maqsadida kunning har qaysi paytida uning yashash joyiga kelishlari mumkin. Nazoratni yetarli darajada olib bormagani uchun ular qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Uy qamog'ini ehtiyot chorasini sifatida qo'llash bo'yicha mansabdor shaxslar harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibi Qozog'iston Respublikasi JPKning 110-moddasida, shuningdek, Konstitutsiyaning 4-moddasi 1-qismiga binoan majburiy bo'lgan va amaldagi qonunchilik sirasiga kiradigan Qozog'iston Respublikasi Oliy sudining 2003-yil 20-martdagi № 1-sonli "Prokurorning gumonlanuvchini qamoqqa olish, uy qamog'iga olish va ularning muddatlarini cho'zish yuzasidan roziligi ustidan sud tartibida shikoyat qilish" to'g'risidagi normativ Qarorida belgilangan. Prokuror sanksiyasi ustidan shikoyat qilish va u tomonidan qabul qilingan qaror qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish tartibidan tashqari, Qozog'iston Respublikasi Oliy sudining 2003-yil 20-martdagi № 1-sonli "Prokurorning gumonlanuvchini qamoqqa olish, uy qamog'iga olish va ularning muddatlarini cho'zish yuzasidan roziligi ustidan sud tartibida shikoyat qilish" to'g'risidagi normativ Qarorida uy qamog'i faqat qonun bo'yicha ikki yildan ko'p ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyat yoki qonun bo'yicha uch yildan ko'p ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki

ayblanayotgan shaxsga nisbatan qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Uy qamog'i ayb qo'yilayotgan moddada sanksiya sifatida ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek, 14-18 yoshdagi shaxs og'irlik darajasi yuqori bo'lmagan jinoyat yoki 14-16 yoshdagi shaxs o'rtacha og'irlikdagi jinoyatni birinchi marta sodir etganda qo'llanilmaydi. Uy qamog'ini qo'llash muddatlari va uni cho'zish tartibini belgilashda qamoqqa olish ehtiyot chorasi bilan bog'liq tartib-qoidalar qiyos qilib olingan va bu to'g'ridan-to'g'ri Qozog'iston Respublikasi JPK 149-moddasida ko'rsatilgan. Aytib o'tish joizki, JPKda ham, Yo'riqnomada ham uy qamog'ini qo'llash muddatlari va uni cho'zish tartibi xuddi Rossiya Federatsiyasi JPKdagi kabi alohida tartibga solinmagan. Lekin Qozog'iston qonunchiligida uy qamog'ini tartibga soluvchi idoralararo normativ hujjat borligi ahamiyatga molik.

Belarus Respublikasi qonunchiligida uy qamog'i ehtiyot chorasi JPKning 125-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, uy qamog'i bu gumonlanuvchi yoki ayblanuvchini jamiyatdan ajratgan holda, lekin qamoqqa olmasdan, prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan belgilangan cheklovlarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Yana shuni ko'rish mumkinki, ushbu moddada keltirilgan qoidalar MDH davlatlari uchun – model JPKning 175-moddasida keltirilgan qoidalarga juda o'xshash, faqat yagona katta farq – bu ehtiyot chorasini qo'llashga sanksiya berish vakolatiga ega subyekt, ya'ni Belarus Respublikasida bu prokuror, MDH model JPKsida esa – sud [6]. Shaxsga nisbatan uy qamog'i qo'llanilgan taqdirda, unga quyidagi cheklovlar alohida yoki asosli majmua sifatida qo'llanilishi mumkin: yashash joyidan umuman yoki ma'lum vaqtlarda chiqmaslik; telefon so'zlashuvlar, yozishmalar va boshqa aloqa vositalaridan foydalanishga taqiq; ma'lum shaxslar bilan muloqot qilish, ularni yashash joyida qabul qilishga cheklov; elektron nazorat vositalaridan foydalanish

va ular faoliyatini ta'munlash majburiyati; nazorat telefon qo'ng'iroqlari yoki boshqa signallarga javob berish, gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi xatti-xarakatlarini nazorat qiladigan surishtiruv yoki boshqa organga shaxsan kelishi; gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki uning yashash joyi ustidan nazorat o'rnatish; gumonlanuvchi, ayblanuvchining jamiyatdan izolyatsiyasi va maqbul xatti-xarakatlarini ta'minlovchi boshqa choralar.

Shuni hisobga olish kerakki, Rossiya JPKsidan farqli o'laroq, Belarus Respublikasi JPKsida o'rnatiladigan cheklovlar doirasida "boshqa choralar" degan ta'rif bilan kengaytiriladi va boshqa cheklovlar qo'yish tashabbusi beriladi. Bunday chora, bizning fikrimizcha, ancha munozarali, chunki uy qamog'i shaxsning konstitutsion huquqlarini cheklashini inobatga olsak, bunday cheklovlar doirasining aniq belgilanishi nafaqat qonun amaliyoti birligi, balki gumonlanuvchi, ayblanuvchining huquqlariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilishni osonlashtiradi. Xuddi Rossiya va Qozog'iston JPKdagidek, gumonlanuvchi, ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi faqat ma'lum hollarda qo'llaniladi va bunda ehtiyot chorasi qo'llanilgan yoki ushlangandan keyin 10 kun ichida ayblov qo'yilmasa, ehtiyot chorasi bekor qilinadi.

Shunday qilib, Qozog'iston Respublikasi JPK kabi, Belarus Respublikasi JPK uy qamog'iga sanksiya berish huquqini prokurorga bergan. Buni, bizning fikrimizcha, ijobiy huquqiy yechim deb bo'lmaydi, chunki uning "yengilligi"ga qaramasdan, ma'lum konstitutsion huquqlar cheklanishini nazarda tutadi va bunday qarorni qabul qilishga faqat sud qarori asos bo'la olishi lozim. Qozog'iston va Belarus Respublikalari JPKda uy qamog'ini qo'llash haqidagi qaror ustidan nazorat surishtiruv organiga yuklatilgan bo'lsa, Rossiya JPKsida uy qamog'ini qo'llash to'g'risidagi sud qarorida uning nazorati qaysi organ yoki mansabdor shaxsga yuklatilishi belgilanishi zarur deyilgan, lekin nazorat organi qaysi ekanligi aniq ko'rsatilmagan. Bu holatni

S.V. Aleksandrovich Rossiya Federatsiyasi JPKdagi kamchilik sifatida e'tirof etadi [6].

Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasi Gruziya JPK 166-moddasida [12] o'z aksini topgan. Unga ko'ra, uy qamog'i qonunchilik bo'yicha ikki yil va undan ko'proq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan jinoyatlarda, voyaga yetmaganlar uchun esa uch yil va undan ko'proq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan jinoyatlarda qo'llaniladi. Bunda shaxsning to'la izolyatsiyasiga hojat yo'qligi talab etiladi va u yashash joyini tark etish taqiqlanishida o'z aksini topadi. Ushbu ehtiyot chorasini qo'llashda sog'lik holati (og'ir bemorlar, nogironlar, 12 haftalikdan oshgan homiladorlar), jinoyat turi, sudlanganlik va boshqa holatlar inobatga olinadi. Uy qamog'i sud qarori bilan nafaqat huquqiy cheklovlar, balki uning muddatini ham ko'rsatgan holda qo'llaniladi. Ishni ko'rib chiqish vaqtida uy qamog'i muddati uch oyni tashkil etadi va 9 oygacha cho'zilishi mumkin. Ushbu muddat o'tgandan so'ng ehtiyot chorasini o'zgartirish yoki bekor qilish talab etiladi.

Ozarbayjon Respublikasi JPKga [13] muvofiq, uy qamog'i – bu ayblanuvchiga sud qarori bilan belgilangan, ozodligi va bir qancha huquqlariga cheklovlar qo'yish hamda bunda uni qamoqqa olmaslik va jamiyatdan to'la izolyatsiya qilmaslikdir. Uy qamog'i qamoqqa olish ehtiyot chorasiga alternativ bo'lib, faqat qamoqqa olishga sud qarori chiqqandan so'ng qo'llanilishi mumkin. Uy qamog'ini qo'llash to'g'risidagi sud qarori faqat himoya tarafidan berilgan arizaga asosan qamoqqa olishni o'rniga qo'llanilishi mumkin. Shunga e'tibor qaratish kerakki, uy qamog'i faqat himoya tarafi arizasiga binoan qo'llanilishi mumkin va bu qonunan belgilab qo'yilgan. Bizningcha, ushbu norma taraflar tengligi prinsipiga zid. Bundan tashqari, uy qamog'i faqat qamoqqa olish o'rniga qo'llanilishi uning mustaqilligini yo'qotadi.

Yuqorida nomlari keltirilgan davlatlardan tashqari jinoyat-protsessual ehtiyot chora-

si sifatida uy qamog'i Moldova Respublikasi JPK (188-moddasi), Qirg'iziston Respublikasi JPKda (109-moddasi) ham ifodalangan bo'lib, ular ham boshqa MDH mamlakatlari jinoyat-protsessual qonunchiligiga deyarli o'xshashdir. Biroq uy qamog'i MDH davlatlarining hammasida ham mavjud emas, masalan, Armaniston JPKda bunday ehtiyot chorasi nazarda tutilmagan. Muhimi, asta-sekin qolgan davlatlar ham ushbu ehtiyot chorasini protsessual qonunchiligiga kiritmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlardan tashqari uy qamog'i dunyo bo'yicha qirqdan ortiq mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjud bo'lib, ushbu davlatlarning huquqiy tizimlarida uy qamog'ining huquqiy tartibga solinishi va qo'llash amaliyotiga nazar solish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Birinchi navbatda, shuni aytib o'tish lozimki, uy qamog'i ayrim davlatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Shvetsiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya va h.k.) ko'proq ehtiyot chorasi sifatida emas, balki jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan tayinlanadigan jinoyat jazolarning bir turi sifatida qo'llaniladi.

Masalan, AQShda uy qamog'i ham, ehtiyot chorasi ham jazo sifatida qo'llanilishi mumkin, chunki har bir shtat hududida o'z huquqiy tizimi mavjud bo'lib, faqat ayrim hollardagina federal qonun-qoidalar kuchga ega bo'ladi. AQShda protsessual majburlov choralari shaxsning konstitutsion huquqlarini sezilarli cheklagan tufayli sudning ruxsati bilan qo'llaniladi. AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan 4-o'zgartirishga ko'ra, sud qasam yoki tantanali va'da bilan tasdiqlangan yetarli asoslarsiz qamoqqa olishga order bermaydi. Bunday order qamoqqa olinadigan shaxsning tavsifini aks ettirmog'i lozim [14].

AQShda qamoqqa olish boshqa choralarga qaraganda, shu jumladan, uy qamog'iga nis-

batan ham ko'proq qo'llaniladi. Og'ir jinoyatlar sodir etgan yoki qayta sodir etgan hamda jamiyat, ayniqsa, oilasiga xavf tug'diradigan jinoyatchilarga nisbatan uy qamog'i qo'llanilmaydi. Shaxsning xavflilik darajasi politsiya tomonidan shaxsni o'rganish natijasida aniqlanadi. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchini qamoqqa olish yoxud uyida qamoqda saqlab turish uchun politsiya zaruriy faktik ma'lumotlarni yig'ib turib, sudga iltimos bilan murojaat qiladi va ushbu shaxsni qamoqqa olishga ruxsat beradigan qaror chiqarish to'g'risida ish qo'zg'atadi. Bu umumiy qoida bo'lib, AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan 4-o'zgartirish, shtat konstitutsiyalari va boshqa qonunlarda ham federal, ham shtat darajasida belgilangan. Biroq jinoyat protsessidagi boshqa qoidalar kabi bu qoidani ham istisno qiladigan holatlar mavjud. Misol sifatida kichiktirib bo'lmaydigan holatlarda qamoq sud qarorisiz ham amalga oshirilishi mumkin. Bu usulda olingan politsiya ixtiyoridagi faktik ma'lumotlar, odatda, protsessual majburlov choralari qo'llashga asos bo'lishi mumkin. Bunday ma'lumotlardan, birinchi galda, majburlov choralari konstitutsiyaviy huquqlarni cheklash bilan bog'liq bo'lgan tur-larini qo'llashda zarurligini ta'kidlash joiz. Lekin qamoqning qonuniyligini tekshirish uchun qamoqqa olingan shaxsni "imkon qadar tez-roq" sudga topshirish kerak. Sud qarori bilan yoki qarorisiz qamoq qo'llanilayotgan-da, politsiya qonunlar va boshqa qonunosti aktlarda belgilangan qoidalarga amal qilishi shart [14].

Amaliyotda bunday shaklda amalga oshiriladigan qamoqqa olishlar odat tusiga kirib qolgan. Bunga AQSh Qonunlari majmuasining "Jinoyatlar va jinoyat protsessi" nomli bo'limi ruxsat beradi. "Shaxsni qamash uchun sudga taqdim qilinadigan ma'lumotda bayon etilgan faktlar va holatlar, – deyiladi AQSh Oliy sudi 1878-yilda Steysi ishi bo'yicha chiqar-gan qarorida, – har qanday farosatli va eh-tiyotkor odamni ishontiradigan darajada bo'lishi shart [6]". Uy qamog'i haqida shaxs-

ning roziligi yozma ravishda olinadi. Uni qo'llash to'g'risidagi qarorga yashash joyi va telefoni borligi, qamoqqa olingan shaxs oila a'zolarining tushunishi va uy qamog'i us-tidan nazorat olib boruvchi organlar bilan hamkorlik qilishi ta'sir o'tkazadi. Uy qamog'i faqat sud qarori asosida qo'llaniladi va unga binoan aybdor shaxs doim o'z uyida bo'lishi lozim. Istisno tariqasida, shaxs aniq belgilan-gan ommaviy ishlarga chiqishi yoki maxsus dasturlarga borishi mumkin. Dam olish kun-lari va kechki soatlarda esa uy-joydan chiqish mutlaqo taqiqlanadi, agar bu shifokor qabu-li yoki sud tomonidan belgilangan ish bilan bog'liq bo'lmasa. Ushbu ehtiyot chorasi ish ko'rilishining turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin, hatto muddatidan oldin ozod etish-da ham [14].

Uy qamog'ida bo'lgan shaxsning o'rnatil-gan taqiqlarga rioya qilishi ustidan nazorat-ni amalga oshirish uchun AQShda elektron nazorat (qo'l va oyoq tasmalari), nazorat markazi kompyuteriga ulangan elektron signalizatsiya keng tarqalgan. Elektron nazoratdan tashqari, politsiya ofitserlari uy qamog'iga olingan shaxslar ustidan kutilma-gan qo'ng'iroq, tashrif yoki patrul yordamida nazorat olib borishga haqlidir.

AQShda bo'lgani singari Yevropaning ko'pgina davlatlarida ham uy qamog'i, av-valo, jinoiy jazo turi hisoblanadi. Misol uchun, Shvetsiyada uy qamog'i 3 oydan ko'p bo'lmagan qamoq jazosi nazarda tutilgan ji-noyatlarni sodir etgan deb topilgan shaxs-larga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu shaxslar ovozli identifikatsiya orqali nazorat qilinadi, ya'ni qamoqqa olingan shaxs uyida istalgan vaqtda telefon jiringlaydi va unga javob ber-ishda shaxs ma'lum kodni aytadi va u yor-damida kompyuter uning shaxsini aniqlay-di. Bundan tashqari, aybdor shaxs to'pig'ida maxsus qurilma mahkamlanib, u har bir aybdor yo'nalishi kiritilgan kompyuterga radiosignallar yuborib turadi. Agar o'rnatil-gan tartib buzilsa, signalizatsiya ishga tu-shadi. Shvetsiyada bunday amaliyot ijobiy

natijalar keltirayotgani statistik ma'lumotlar bilan isbotlanadi. Masalan, uy qamog'i jazosidan so'ng 13 % shaxslar qayta jinoyat sodir etadi, qamoqdan so'ng esa bu ko'rsatkich 24 %ni tashkil etadi. Bunday nazorat tizimi Isroilda ham yo'lga qo'yilgan, ya'ni jazoni o'tayotgan shaxslarga uydan uzoqlashganda, politsiyaga signal yuboradigan bilaguzuklar taqiladi [14].

Avstraliyada esa uy qamog'ining ozodlikdan mahrum qilish joylariga nisbatan iqtisodiy foydasi va uni qo'llash istiqbollari ta'kidlab o'tishdi.

Fransiyada Napoleon 1804-yilda imzolagan va 1970-yil 17-iyul, 1984-yil 9-iyul va 1989-yil 6-iyulda bir qator o'zgarishlar kiritilgan Jinoyat-protsessual kodeksiga binoan, ayblanuvchi tergovni to'g'ri o'tkazish manfaatlari va jamiyat xavfsizligi nuqtayi nazaridan yo sudgacha nazorat ostiga olinishi, yoxud dastlabki qamoqda saqlanishi mumkin (137-modda). Fransiya JPK III bobining VII bo'limi "Sud nazorati va dastlabki qamoq" deb nomlanishi amalda faqat ikki turdagi majburlor chorasi qo'llanilishini ko'rsatadi.

Fransiya JPKda «ehtiyot choralari» atamasi umuman ishlatilmagan [15]. Biroq mazmun-mohiyati va qo'llanilish maqsadi hamda asoslariga ko'ra, ular bizning jinoyat-protsessual ehtiyot choralari aynan mos tushadi. Ma'lum bo'ldiki, Fransiyada ham uy qamog'i tariqasidagi jinoyat-protsessual ehtiyot chorasi mavjud emas. Lekin yuqorida aytib o'tilgan fransuz sudyalari tomonidan qo'llaniladigan sudgacha nazorat ehtiyot chorasi uy qamog'i juda yaqin bo'lganligi bois ushbu ehtiyot qisqacha chorasiga to'xtalmoqchimiz. Sudgacha nazorat ostiga olish dastlabki qamoq chorasining muqobili sifatida 1970-yilda qabul qilingan bo'lib, hozir Fransiyada asosiy ehtiyot chorasi hisoblanadi va bu chora qamoqqa olishlarning umumiy hajmi kamayishiga olib keldi [15].

Sud nazorati chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror dastlabki tergovning har qan-

day bosqichida qabul qilinishi mumkin (139-moddaning birinchi qismi). Masalani hal qilish chog'ida sud, asosan, jinoyatning mohiyati va xavflilik darajasini hisobga oladi. Sud nazorati kompleks majburlor chorasi hisoblanib, 16 ta turli cheklashlardan iborat. Sudgacha nazorat axloq tuzatish turmasiga qamash nazarda tutilgan jiddiy jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga magistrat sudi tomonidan tayinlanadi va uning zimmasiga bir qator majburiyatlar yuklanadi, chunonchi: magistrat belgilagan hududdan tashqariga chiqmaslik; magistrat ijozat bergan hollardan boshqa sabablar bilan o'zining doimiy istiqomat joyidan ketib qolmaslik; magistrat taqiq etgan joylarga bormaslik yoki faqat u ruxsat bergan joylarga borish; magistrat belgilagan joylarda muttasil ro'y-xatdan o'tib turish; barcha turdagi yoxud ba'zi transport vositalarini haydamaslik; ba'zi shaxslar bilan muloqotda bo'lmaslik; ekspertiza, davolash yoki shifoxonada bo'lish kabi choralarga bo'ysunish; muayyan kasb bilan shug'ullanmaslik; qurol olib yurmaslik, uni topshirish; oilasi yoki boshqa shaxslarga muttasil moddiy yordam berish, belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida bajarish va boshqalar (JPKning 138-moddasi). Mazkur talablarni bajarmaslik sudgacha dastlabki qamoq chorasi qo'llanishiga sabab bo'ladi (JPKning 144-moddasi).

Shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarida ayblanayotgan va unga boshqa majburlor chorasi qo'llanishi maqsadga muvofiq emasligi aniq bo'lgan holdagina qamoqqa olinadi. Shunga qaramay, aksariyat Yevropa mamlakatlariga qaraganda Fransiyada qamoq chorasi ko'proq qo'llaniladi. Avvallari ishni mazmunan ko'rib, hukm chiqaradigan sudya ayblanayotgan shaxsni qamashga vakolatli edi. Fransuz sudyalari biri J.M. Lamber o'z kitobida shunday yozgandi: «Asoslanmagan qamoqqa olishlarni omma-viy tanqid qilayotganlar haq, bu haqiqat, bizdagi barcha yuridik tizimni tubdan isloh qilishga tayyorgarlik ko'rishdan boshqa

chora yo'q» [16]. JPKga 2000-yil 15-iyunda kiritilgan o'zgarishlarga binoan, bu vakolat xolislikni ta'minlash maqsadida yangi ta'sis etilgan erkinlik va vasiylik sudyalari-ga berildi [17]. Ular yuqoriroq darajadagi sudyalar hisoblanadi (JPKning 137¹-moddasi).

Qamoqqa olish yoki uning muddatini uzaytirish haqidagi qaror ustidan apellatsiya sudiga shikoyat keltirilishi mumkin. Shikoyat (apellatsiya) tegishli qaror qabul qilingan kunning ertasidan kechiktirilmay berilishi kerak. Umumiy qoidaga ko'ra, apellatsiya berilishi vaqtincha qamoqqa olish haqidagi qarorning ijrosini to'xtatib turmaydi, ya'ni shaxs bu masala ko'rib chiqilgunga qadar qamoqda saqlanadi. 1993-yil 24-avgustdagi qonun bilan fransuz jinoyat protsessiga yangi «refere-liberte» institutining kiritilishi qamoqda saqlash muddatlarining kamayishiga olib keldi. "Uning mazmuni – taxminan "shaxs ozodligi haqida masalani kechiktirmasdan ko'rib chiqish", – deydi professor G. To'laganova o'z tadqiqotlarida [4].

Fransuz jinoyat-protsessual qonunchiligidagi yana bir o'ziga xos jihat shundan iboratki, 2000-yil 15-iyunda qabul qilingan qonunga ko'ra, apellatsiya berayotgan shaxs tergov kamerasing o'zidan yuqoridagi singari masalani zudlik bilan kollegial tarzda ko'rib chiqilishini talab qilishga haqli.

Fransiyada qamoq muddati bir yildan oshmasligi lozim. Lekin asoslar yetarli bo'lsa, erkinlik va vasiylik sudyasi uni yana olti oyga uzaytirishi mumkin. Faqat favqulodda hollarda bir necha og'ir jinoyatda: giyohvand modda tarqatish, terrorizm, uyushgan jinoyatlar-da ayblanayotganlar to'rt yilgacha qamoqda saqlanishi mumkin (JPKning 145²-moddasi) [18].

Italiya jinoyat-protsessual va jinoyat qonunchiligida ham xuddi AQShda bo'lgani kabi uy qamog'i ham ehtiyot chorasi, ham jinoyat uchun tayinlanadigan jazo turi sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, Italiya

qonunchiligiga ko'ra, yetmish yoshdan oshgan sudlanuvchilar qamoq jazosini uy qamog'i yoki jamoat ishlarida ishlash bilan almashtirishlari mumkin. 1988-yilda qabul qilingan Italiya JPKga muvofiq, protsessual majburlov choralari "dastlabki tergov bo'yicha sudya" tomonidan qo'llaniladi. Sudgacha ayblanuvchini qamoqda (JPK 255-moddasi) yoxud uy qamog'ida (JPK 284-moddasi) saqlash sodir etilgani uchun qonun bo'yicha uch yildan ortiq muddatga turma qamog'i nazarda tutilgan va aybi yetarli dalillar bilan tasdiqlangan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, shaxs tergovdan bosh tortmoqchi, dalillarni yo'qotmoqchi, yana jinoyat qilmoqchi ekani to'g'risidagi ma'lumotlarning bo'lishi shaxsni uy qamog'iga joylashtirishga sanksiya berilishiga olib kelishi mumkin.

Germaniyada Jinoyat-protsessual kodeksi Napoleon kodeksiga o'xshash bo'lib, 1877-yilda qabul qilingan va 1987-yil 7-aprelda bir qator o'zgartishlar bilan yangi tahrirda tasdiqlangan. Unda ehtiyot choralarini qo'llash tartibi batafsil bayon etilib, «...shaxsni qamash sudning ruxsati bilan ko'riladigan favqulodda chora» [19] ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Latviya, Litva, Estoniya, Moldova davlatlarida uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi faqat sud tomonidan qo'llanilmoqda [6].

Shotlandiya, Shveysariya kabi Yevropa davlatlari jinoyat-protsessual va jinoyat qonunchiligida uy qamog'i tarzidagi protsessual ehtiyot chorasi nazarda tutilmagan bo'lib, ularda ham eng jiddiy va asosiy protsessual majburlov chorasi qamoq hisoblanadi. Yevropa mamlakatlaridan tashqari boshqa davlatlarda ham uy qamog'i mavjud bo'lib, u, asosan, jinoiy jazo turi hisoblanadi. Jumladan, Yaponiya jinoyat qonunchiligiga ko'ra, mahkum 1 kundan 30 kungacha uy qamog'ida saqlanishi mumkin. Shu bilan birga, chet ellarda uy qamog'ini faqat jazo sifatida ishlatishadi, desak xato bo'ladi. Bu chora jinoiy ishning sudgacha bo'lgan

qismida ehtiyot chorasi sifatida ham keng qo'llaniladi.

Xulosalar

Amalga oshirilgan tadqiqotga tayanib, quyidagi xulosalar va ular asosida takliflar berishimiz mumkin.

Fikrimizcha, uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasi deganda, sud ajrimi asosida gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan tayinlanadigan, shaxsni yashash uchun yaroqli bo'lgan turar-joyda qisman jamiyatdan ajratib, unga nisbatan qonunda belgilangan cheklovlarni o'rnatishni o'z ichiga olgan ehtiyot chorasi tushuniladi. Demak, bunda shaxsni jamiyatdan to'la ajratish imkoni mavjud bo'lmay, u Konstitutsiyamizga muvofiq, jamiyatning asosiy bo'g'ini sanalmish oilada qoldirilgan holda, muayyan huquq va erkinliklarini amalga oshirishdan mahrum bo'ladi. Shunga ko'ra, JPK 242¹-moddasi 1-qismidagi shaxsni jamiyatdan "to'la" ajratish jumlasini chiqarish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Uy qamog'i tushunchasi va mazmun-mohiyati shundan dalolat beradiki, u shaxs erkinligini uning tabiiy huquqlari va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirgan holda, cheklovchi ehtiyot chorasidir.

Uy qamog'ini qo'llash asoslari nafaqat qonunda belgilangan, balki buning uchun ma'lum shart-sharoitlar bo'lishi zarur. Ushbu shartlar va qonuniy asoslar birgalikda jinoyat protsessi qatnashchilari huquqlari buzilishining oldini olish va ushbu ehtiyot chorasini istiqbolli amalga kiritishga xizmat qiladi.

Uy qamog'ini qo'llash *asoslari* sifatida tergov materiallarida dalillar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar hisoblanib, ular ayblanuvchi yoki gumonlanuvchini tergov yoki suddan yashirinishi, jinoyat faoliyatni davom ettirishi, jinoyat protsessi qatnashchilariga bosim o'tkazishi, dalillarni o'zgartirishi yoki yo'q qilishi, hukm ijrosiga to'sqinlik qilishi mumkinligiga oid o'z tasdig'ini topgan ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash *shartlari* – bu aynan mazkur ehtiyot chorasini qo'llashga yo'l ochib beradigan va uning qonuniyligini ta'minlaydigan jinoiy-huquqiy va faktik shart-sharoitlardir. Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash shartlari umumiy va maxsus shartlarga bo'linadi. *Umumiy shartlar* – bu jinoiy-protsessual qonunchilikda belgilangan shartlar bo'lib, ushbu ehtiyot chorasini qo'llashga asos bo'la oladi. Ular quyidagilardan iborat: amaldagi jinoiy ish borligi; tergovni olib borish va ehtiyot chorasini belgilash huquqiga ega subyekt borligi; tergov obyekti – gumonlanuvchi, ayblanuvchi borligi; tergov materiallarida uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun yetarli asos borligi.

Maxsus shartlar – bu faktik, ya'ni amaldagi shartlar bo'lib, ular tanlovning qonuniyligi va uning keyingi ijrosini ta'minlaydi: jinoiy-huquqiy – jinoyat kategoriyasi; kriminologik-huquqiy – gumonlanuvchi, ayblanuvchi shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar (yoshi, sog'lig'i holati, oilaviy ahvoli, sudlanganligi, mehnat faoliyati, yashash, ish yoki o'qish joyidan tavsifnomalar va sh.k.); gumonlanuvchi, ayblanuvchining yashash joyi mavjudligi va uning maqomi; cheklovlar o'rnatish mumkinligi.

Ba'zi davlatlar JPKda yuqoridagi kabi faktik (maxsus) shartlarning ayrimlari, xususan, shaxsning keksaligi, nogironligi, homiladorligi, yosh bolasi borligi, voyaga yetmaganligi uchun qamoqqa olishga asoslar mavjud bo'lsa-da, uy qamog'ini qo'llash shartligi belgilangan. Masalan, Moldoviyada 60 yoshdan oshgan, birinchi guruh nogironi, homilador yoki 8 yoshgacha bolasi bor ayollarga qamoqqa olishning muqobili tariqasida uy qamog'i qo'llaniladi. Fikrimizcha, bu holatda yuqoridagi singari ayblanuvchining shaxsiy sifatleri ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash asosi hisoblanadi va bu protsessual qonunchilikning yanada insonparvarlashishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKda yuqoridagi holatlar kabi sifatlarga ega shaxslar uchun ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash shartligi belgilansa, aniqrog'i, sog'lig'i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlardan qat'i nazar, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llanilishi lozim bo'lgan shaxslar doirasini kiritish lozim. Jumladan, I guruh nogironlari, 70 yoshdan oshgan keksalar, homilador yoxud 1 yoshgacha bolasi bor bo'lgan ayollar, 14 yoshga to'lmagan bolalar shunday shaxslar doirasiga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ma'lum bo'ldiki, uy qamog'ini bizning qonunchiligimiz tomonidan yaratilgan yangilik emas va chet elda ancha keng qo'llanish amaliyotiga ega. Uy qamog'ini ehtiyot chorasi yaxshi istiqbolga ega va u tomonidan o'rnatiladigan cheklovlar ehtiyot choralari oldida turgan vazifalarni to'laqonli bajara oladi. Chet el jinoyat-protsessual qonunchiligining uy qamog'ini qo'llash asoslari, tartibi, muddatini cho'zish, bekor qilish va bajarilishi ustidan nazorat qilishga doir ayrim jihatlarni bizning qonunchiligimizda ham qo'llasa bo'ladi. Uy qamog'ini jinoyat-huquqiy jazo instituti sifatida qo'llash chet el amaliyotini milliy qonunchiligimizda ham tajribaga kiritish istiqbolari mavjud.

Yuqorida amalga oshirgan tadqiqotimiz va uning natijalariga muvofiq ega bo'lgan ilmiy-nazariy xulosalarimizga asoslangan holda, milliy qonunchiligimizga kiritish maqsadga muvofiq deb bilgan quyidagi takliflarni ilgari surmoqchimiz:

Birinchidan, JPK 242¹-moddani quyidagicha uchinchi qism bilan to'ldirish: "Uy qamog'ini I guruh nogironlari, 70 yoshdan oshgan keksalar, homilador yoxud 1 yoshgacha farzandi bor ayollar, 14 yoshga to'lmagan bolalarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganda qo'llanishi lozim".

Ikkinchidan, ma'lum bo'ldiki, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini jinoyat protsessual majburlovning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, jinoyat javobgarlikka jalb etilgan, ba'zan esa jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarga nisbatan odil sudlov faoliyatini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U majburlov xarakteriga ega bo'lib, amalda uning har qanday cheklovi fuqaro shaxsiy konstitutsiyaviy erkinligining (iroda erkinligi, harakat qilish, daxlsizlik va h.k.) cheklanishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan aksariyat MDH (Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya) davlatlarida prokurorning uy qamog'ini qo'llash haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilish tartibi belgilangan. Garchi bizda prokurorlarga uy qamog'ini bevosita o'zi qo'llash vakolati berilmagan bo'lsa-da, ushbu ehtiyot chorasining yuqoridagi xususiyatlarini inobatga olgan holda, protsess ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida prokuror yoki tergovchilarning ushbu ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq masalalarni hal etishi yuzasidan sudga shikoyat qilish tartibi joriy qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shundan kelib chiqqan holda, JPK 243-moddasi 4-qismi quyidagicha to'ldirilishini taklif qilamiz: "Prokurorning qamoqqa olish yoki uy qamog'ini tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma asosligini tekshirishi natijalaridan taraflar norozi bo'lsa, uning harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish mumkin".

Yuqoridagi xulosa va takliflar milliy va xorijiy qonunchilik, protsessualist olimlar fikrlari hamda bevosita amaliyotni o'rganish asnosida tavsiya etilayotgan bo'lib, ular ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash tartibi va ijrosini nazorat qilishni takomillashtirishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

REFERENCES

1. Criminal Procedure Code of the Republic of Tajikistan. Available at: <https://ncz.tj/content/ugolovno-prosessualnyy-kodeks-respubliki-tadjikistan/>.
2. Criminal Procedure Code of Ukraine. Available at: www.Kalinovsky-k.narod.ru/zakon/.
3. Model'nyy Ugolovno-protsessual'nyy kodeks dlya gosudarstv – uchastnikov SNG [Model Code of Criminal Procedure for the CIS Member States]. *Information Bulletin of the Interparliamentary Assembly of the CIS*, 1996, no. 10.
4. To'laganova G.Z. Jinoyat protsessida protsessual majburlov va uning o'ziga xos xususiyatlari [Procedural coercion in criminal proceedings and its characteristics]. PhD thesis. Tashkent, 2009, p. 178.
5. Lyublinskiy P.I. Svoboda lichnosti v ugolovnom protsesse [Freedom of the individual in the criminal process]. St. Petersburg, 1906, p. 235.
6. Aleksandrovich S.V. Domashniy arest kak mera presecheniya v ugolovnom protsesse Rossiyskoy Federatsii [House arrest as a measure of restraint in the criminal process of the Russian Federation]. PhD thesis. Kaliningrad, 2009, p. 22.
7. Ovchinnikov Y.G. Domashniy arest kak mera presecheniya v ugolovnom proizvodstve [House arrest as a measure of restraint in criminal proceedings]. PhD thesis. Omsk, 2006, p. 35.
8. Rossiyskoe zakonodatel'stvo X-XX vekov [Russian Legislation of the X-XX centuries]. Judicial reform. Moscow, Yuridicheskaya literatura, 1991, vol. 8, p. 307.
9. Petrukhin I.L. Neprikosновенност' lichnosti i prinuzhdenie v ugolovnom protsesse [Inviolability of the person and coercion in criminal proceedings]. Moscow, Nauka, 1998, p. 147.
10. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi [Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan]. Almata, Yurist, 2005, p. 217. Available at: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231/>.
11. Trunov I.L., Trunova J.K. Mery presecheniya v ugolovnom protsesse [Measures of restraint in criminal proceedings]. St. Petersburg, Yuridicheskij sentr Press Publ., 2003, pp. 151, 153.
12. Criminal Procedure Code of the Republic of Georgia. Available at: http://www.base.spinform.ru/show_doc.fwx?regnom/.
13. Criminal Procedure Code of the Republic of Azerbaijan. Available at: www.km.undp.sk/.
14. Qo'shayev N.M., AQSh jinoyat protsessi [US criminal procedure]. Tashkent, TSIL, 2010, pp. 41–42.
15. Golovko L.V. Doznanie i predvaritel'noe sledstvie v ugolovnom protsesse Fransii [Inquiry and preliminary investigation in the criminal process of Francia]. Moscow, Spark, 1995, pp. 90–94.
16. Lamber J.M. Malen'kiy sudya [Little Judge]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1990, p. 198.
17. Ismoilov O. Fransiyada dastlabki tergov [Preliminary investigation in France]. 2005, no. 5, p. 32.
18. Filimonov B.A. Sushhnost' i kharakter zaklyucheniya pod strazhu v ugolovnom protsesse FRG [The essence and nature of detention in the criminal process of Germany]. *Vestnik Moscow University*, 1982, Ser. 2. Law, 1982, no. 4, pp. 16–17.
19. To'laganova G.Z. Uy qamog'ini ehtiyot va jazo choralari sifatida qo'llash bo'yicha xorij tajribasi [Foreign experience in the use of house arrest as preventive and punitive measures]. Tashkent, TSUL, 2015, p. 17.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurabayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 10.10.2022-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4. Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 163. TDYU tipografiyasida chop etildi.